

**SHAKLLANTIRUVCHI BAHOLASHNING O'ZBEKISTONDA EFL  
(INGLIZ TILINI CHET TILI SIFATIDA) VA ESP (MAXSUS MAQSADLAR  
UCHUN INGLIZ TILI) O'QITISHDA TIZIMLI O'QUV VOSITASI  
SIFATIDAGI ROLI: TESOL MAGISTRATURA DASTURI MISOLIDA**

**Abror Nazarov Axror o'g'li**

**Dolzarblik.**

Bugungi kunda O'zbekistonda ingliz tilini o'qitish (EFL va ESP kontekstlarida) ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq amaliyotda baholash jarayoni ko'pincha yakuniy natijalarga yo'naltirilgan bo'lib, bu o'quv jarayonining rivojlantiruvchi xususiyatlarini to'liq ochib bermaydi. Til o'rganishning kommunikativ va kompetensiyaviy tabiatini hisobga olgan holda, shakllantiruvchi baholashni o'qitish vositasi sifatida qo'llash masalasi dolzarb hisoblanadi.

**Muammo.**

Mazkur tadqiqotda muammo sifatida an'anaviy summativ (yakuniy) baholash amaliyoti bilan zamonaviy til o'qitish yondashuvlari o'rtasidagi nomuvofiqlik ko'rib chiqiladi. Ya'ni, mavjud baholash tizimi ko'proq natijani o'lchashga xizmat qilsa, samarali til o'rganish jarayoniy, reflektiv va interaktiv yondashuvni talab qiladi.

**Maqsad.**

Tadqiqotning maqsadi – shakllantiruvchi baholashning EFL va ESP o‘qitish jarayonidagi rolini aniqlash hamda uni tizimli pedagogik vosita sifatida asoslashdan iborat.

### **Natijalar.**

Tadqiqot aralash metodologiya asosida olib borilib, O‘zbekistondagi TESOL magistratura dasturi misolida empirik ma’lumotlar tahlil qilindi. Kvantitativ tahlil talabalar natijalarida shakllantiruvchi baholash joriy etilganidan so‘ng ijobiy o‘shish kuzatilganini ko‘rsatdi. Sifat tahlili esa ishtirokchilarning fikr-mulohazalari asosida shakllantiruvchi baholash refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va doimiy fikr-mulohaza orqali o‘rganish samaradorligini oshirishini tasdiqladi. Shuningdek, ushbu yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

### **Xulosa.**

Xulosa qilamizki, shakllantiruvchi baholash EFL va ESP o‘qitish jarayonida nafaqat baholash vositasi, balki samarali o‘qitish va o‘rganish mexanizmi sifatida xizmat qiladi hamda uni keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi.